

O'QUVCHILARNI HARBIY- VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING AHYOLI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI


*Botirov Ilhom Saydullayevich, Sirdaryo viloyati IIB Ma'naviy-
ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati xodimi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

STATUS AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT OF EDUCATION OF STUDENTS IN A MILITARY-PATRIOTIC SPIRIT

*Botirov Ilhom Saydullayevich, employee of the Spiritual and
Educational Work and Personnel Supply Service of the Syrdarya
Regional Internal Affairs Department, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences (PhD)*

СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВОЕННО- ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ

*Ботиров Илхом Сайдуллаевич, сотрудник Службы
духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения
УВД Сырдарьинской области, доктор
педагогических наук (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0001-8131-097X>

e-mail:
botirovilhom73@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning hozirgi holati, mavjud muammolar va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Yosh avlodda Vatanga sadoqat, mas'uliyat, jasorat va intizomni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'rganiladi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlik modeli va amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim tizimi, o'quvchilar, pedagogik model, Vatanga sadoqat, intizom, innovatsion yondashuvlar.

Annotation: This article examines the current state of military-patriotic education among school students, identifying existing challenges and factors affecting its effectiveness. Ongoing efforts to cultivate loyalty to the Homeland, responsibility, discipline, and courage in the younger generation are analyzed. Additionally, the paper substantiates key directions for improving military-patriotic education through modern pedagogical technologies, innovative approaches, collaborative educational models, and practical training activities.

Keywords: military-patriotic upbringing, education system, students, pedagogical model, loyalty to the homeland, discipline, innovation.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние военно-патриотического воспитания учащихся в общеобразовательных учреждениях, выявляются существующие проблемы и факторы, влияющие на его эффективность. Рассматриваются проводимые мероприятия по формированию у молодежи верности Родине, ответственности, дисциплины и мужества. Кроме

того, обоснованы направления совершенствования военно-патриотического воспитания на основе современных педагогических технологий, инновационных подходов, практических занятий и модели сотрудничества в образовательном процессе.

Ключевые слова: военно-патриотическое воспитание, система образования, учащиеся, педагогическая модель, верность Родине, дисциплина, инновации.

Kirish. Bugungi kunda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yosh avlodning ma'naviy yetukligi va Vatanga sadoqatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari ushbu jarayonning asosiy bo'g'ini bo'lib, o'quvchilarda mas'uliyat, intizom, jasorat va Vatan himoyasiga tayyorlik sifatlarini shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish dolzarb masaladir.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi 64-moddasida shunday deyilgan, "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlirlar". Har bir yosh yigit chaqiruv yoshiga yetgach, o'zining Vatani oldidagi muqaddas burchini bajarish uchun harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o'quvchi yoshlarni har tomonlama harbiy xizmatga tayyorlash va mustaqil O'zbekiston ravnaqini himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado etishdir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida o'z Vatanining himoyasi yo'lida aql-zakovati va harbiy mahorati bilan xizmat qilishga, uni himoya qilishga tayyor turadigan yoshlar qilib tarbiyalash, o'quvchilarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va Vatan uchun o'z hayotini baxshida etadigan insonlarni tarbiyalash, ularni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish, ularda litsey va kollejlardagi harbiy rahbar lavozimga xos bo'lgan o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazilishi bo'yicha qobiliyat va iqtidorni tarkib toptirishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy ishga qiziqish va ehtiyojni rivojlantirish, harbiy kasblarni egallash, yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni nazarda tutadi.

Harbiy Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi esa Vatanni himoya qilish uchun tayyorgarlikni ta'minlaydigan fikr, ishonch, dunyoqarashni shakllantirish o'z Vatani va ona yurti uchun kuchi va hayotini bag'ishlash, bo'lajak jangchilarning ma'naviy jangavor xislatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonining holati va takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va mavjud metodik manbalar tahlil qilindi. Amaliy jarayonni o'rganish maqsadida o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida suhbat va kuzatuv metodlari qo'llanildi. Shuningdek, maktab va litseylarning harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi faoliyat samaradorligini baholash uchun taqqoslash, tahlil-sintez hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

O'quvchi-yoshlar orasida, ularning Vatanga, millatga, el-yurtga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi "Ma'naviyat – qalbim quyoshi", "Vatanni sevmok imondandir", "O'zbekiston – Vatanim manim" kabi mavzularda Respublika insholar ko'rik tanlovlari o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini qayta isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, har tomonlama rivojlangan, malakali, raqobatbardosh va barkamol mutaxassislarni tayyorlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zaruriyati ko'rsatilgan.

Darhaqiqat o'quvchilar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini rivojlantirish va uni hayotga tatbiq etish jarayoni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining o'ziga xos, uzviy tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Umumiy o'rta ta'lim va litseylarning tarbiyaviy ishlar mazmunini o'rganish, tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan, aksariyat ta'lim

muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar rejalarida turli yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilishi ko'zda tutilgan ko'plab, ko'pincha bajarilishini ta'minlash imkonini bo'lmagan tadbirlarning qator nomlarini yoki bir necha tadbirdan iborat bo'lgan, qisqa, bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni qamrab olmagan rejalarini ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalarida uni o'tkazilish vaqtining mavhumligi yoki aniq belgilanmasligi, tadbirlarni tashkil etishga mas'ul bo'lgan muassasa va hamkorlik tashkilotlari ish rejasi mazmuni umumiy tarzda berilishi, ya'ni aynan uni bajarishga mas'ul bo'lgan shaxsni ko'rsatilmasligi ko'zga tashlanadi. Bu holat esa tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash va nazorat qilishga mas'ul bo'lgan jamoat tashkiloti rahbari yoki tadbir o'tkazish vaqtini unutib qo'yishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, tuzilgan ish rejalarining mazmuni atroflicha tahlil etilsa, aksariyat holatlarda, rejada ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy maqsadi va vazifalarini qamrab olmasligi, bir tomonlama, asosan, o'quvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishdan iborat bo'lgan tadbirlar turkumidan iborat bo'lgan majmua sifatida yondashilmoqda.

To'rtinchidan, ba'zi hollarda tuzilgan rejalar turkumi va uning ijrosi o'rganilganda, bu rejalar amalga oshirish uchun emas, balki "xo'ja ko'rsin"ga tuzilganligini, yoki yuqori tashkilotlarga taqdim etish uchun tayyorlanganligining guvohi bo'lamiz.

Beshinchidan, barcha tuzilgan reja va tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishi yoki ijro intizomi masalasi bo'lib, ya'ni reja va tadbirlar dasturini amaliy samaradorligini ta'minlash hozirgi kunda ham eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Oltinchidan, ish va tadbirlar rejasi bilan, uni amalga oshirish tizimi o'rtasida "uzilish" bo'lib, ijro intizomi masalasi, mexanizimini takomillashtirish va zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Yettinchidan, reja va ijro o'rtasidagi uzilish tahlil etilsa, rejalar, asosan, ta'lim muassasasi va jamoat tashkilotlari rahbarlari tomonidan ishlab chiqilishi, ijro etish esa sinf rahbarlari, o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi sababli, mavjud holat uzviyligini ta'minlash maqsadida, iloji boricha tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish jarayonini quyi tizimdan boshlash kerak. Bu tizim reja va ijroni

ta'lim muassasasi, jamoat tashkilotlari yoki guruh murabbiylari, ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tarzida tashkil etishni taqozo etadi. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimining uzviy bo'lishi, maqsad va vazifaning uyg'unligini, eng asosiysi, amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, fan o'qituvchilari ongiga ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilari va jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Murabbiylar kengashi) shug'ullanishi kerak degan fikr o'rnashib qolgan.

To'qqizinchidan, hozirgi kunda jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi, Xotin-qizlar qo'mitasi) ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari tizimida o'z o'rnini topa olmayapti, ko'pincha kuzatuvchi yoki ma'muriyat tomonidan tashkil etilgan va o'tkaziladigan ishlarda, tadbirlarda ishtirokchi bo'lib qolmoqda.

O'ninchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoiti xususiyatlaridan kelib chiqib, hozirgi kunda ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar, va ta'lim muassasalari jamoat tashkilotlari rahbarlarining aniq belgilangan vazifalari ularning ta'lim-tarbiya tizimidagi amaliy ishtiroki, ishining samaradorligiga qarab, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablari va litseylarda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni yetarli darajada yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ayrim metodik va tashkiliy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. O'tkazilgan kuzatuvlar va suhbatlar o'quvchilarda Vatanga sadoqat, intizom, mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, harbiy sport o'yinlari va jamoaviy tadbirlar samarali ekanini tasdiqladi.

Biroq ayrim ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha darsdan tashqari faoliyat yetarli darajada tizimli emasligi aniqlandi. Pedagoglar tomonidan zamonaviy innovatsion yondashuvlardan yetarlicha foydalanmaslik jarayon samaradorligini pasaytirayotgan omillardan biri sifatida qayd etildi.

Shunga ko'ra o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash amaliyotda qay

darajada yo'lga qo'yilganligini aniqlash maqsadida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'rganildi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning metodik ta'minoti.

2. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari mazmuni va uning tashkil etilish holati.

3. O'qituvchilarning o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir bilimlarga egaligi va pedagogik mahorat darajasi.

4. O'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar (mahalla, oila, ma'naviyat markazlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar).

O'rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari va litseylarida mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchilarda tegishli ma'lumot, kasb tayyorgarligi bo'lishiga qaramay, pedagogik-psixologik yo'nalishidagi, ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga oid bilimlari talab darajasida emas. Shuning uchun ham o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishidagi bilimlarini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yosh avlodda Vatanga sadoqat, mas'uliyat, intizom va jasorat kabi fazilatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Mavjud holatni tahlil qilish jarayonida ayrim metodik cheklovlar, darsdan tashqari faoliyatning yetarli darajada tizimli emasligi, pedagoglarning innovatsion yondashuvlardan foydalanishi yetarli emasligi kabi muammolar aniqlandi.

Shu bois, ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv-metodik ta'minotni yangilash va pedagoglar malakasini oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi o'quvchilarda Vatanga muhabbat va fuqarolik mas'uliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – Toshkent: Adolat, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2020.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Nabiye B. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Xoliyorov A., Qodirov S. Vatanparvarlik tarbiyasi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Hasanboeva O., Raximov R. Pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
9. Jalolov J. Harbiy ta'lim va vatanparvarlik ruhida tarbiya masalalari. – Toshkent: Sharq, 2017.
10. Buronov, O., & Kasimjonova, R.F. The shrines of Kitab District–Symbols of our national heritage. Modern Problems in Education and Their Scientific Approaches, 104-111.
11. Boronov, O. History of medical prevention and sanitary-epidemiological stability in rural areas. Journal of Social Sciences, 1(02).

